

7 amaliy mashg'ulot

Mavzu: Biologiya (Zoologiya) fanining darslarini o'tkazish. Darsini kuzatish va tahlil etish.

“Bo'g'im oyoqlilar” tipini o'rganish metodikasi.

Amaliy mashg'ulotining maqsadi:

Talabalarni umumiy o'rta ta'lim maktablarining zoologiyadan tuzilgan dts, o'quv dasturini, darslikda berilgan “bo'g'im oyoqlilar” tipini tahlil qilish, msnilar tuzishga o'rgatish;

Mashg'ulot davomida talaba:

- Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun zoologiyadan tuzilgan davlat ta'lim standartidagi “bo'g'im oyoqlilar tipi” bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni ajratishni, ular asosida msnilar tuzishni bilishi;
- Zoologiyadan tuzilgan davlat ta'lim standarti mazmunining o'quv dasturi bilan uzviyligini tushunishi;
- “bo'g'im oyoqlilar” tipidagi darslar tizimini to'g'ri belgilashi, mavzuli-reja tuzish ko'nikmasini egallashi;
- O'quv dasturida “bo'g'im oyoqlilar” tipi bo'yicha belgilangan amaliy mashg'uloti va ekskursiyalarni o'tkazish, ularda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo'llarini belgilashi lozim.

Zarur jihozlar: biologiyadan tuzilgan davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, “zoologiya” darsligi, amaliy va ekskursiya jihozlari

Amaliy mashg'ulotida foydalaniladigan pedagogik texnologiya: modulli ta'lim texnologiyasining kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan modul dasturi.

Amaliy mashg'ulotining borishi:

1. Tashkiliy qism.
2. Talabalarni amaliy mashg'ulotining maqsadi, borishi, mustaqil bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtirish.
3. Zoologiyadan tuzilgan davlat ta'lim standartining mazmuni va mohiyati bilan tanishtirish.
4. “bo'g'im oyoqlilar” tipini o'qitish metodikasini o'rganish.
5. “bo'g'im oyoqlilar” tipi bo'yicha msnilar tuzishni o'rganish.
6. Amaliy mashg'ulotini yakunlash.

“bo'g'im oyoqlilar” tipi umurtqasiz hayvonlar ichida eng takomillashgan organizmlar bo'lib, o'quv dasturida ularni o'rganish uchun 12 soat vaqt ajratilgan. Soatlarni mavzularga quyidagicha taqsimlash mumkin:

Dars №	Mavzu	Ajratilgan soat
18-19	Qichqichbaqasimonlar sinfi	2
20-21	O'rgimchaksimonlar sinfi	2
22-29	Hasharotlar sinfi	8 soat, shundan 1-soat amaliy mashg'uloti, 1-soat ekskursiya

Talabalarning kichik guruhlarda mustaqil ishlashlari uchun modul dasturi

Modul dasturining didaktik maqsadi: siz talabalar bilan kichik guruhlarda mustaqil ishlab, “bo‘g‘im oyoqlilar” tipini o‘qitish metodikasini, mazkur tipdagi mavzu bo‘yicha mavzuli-reja tuzishni o‘rganishingiz, “bo‘g‘im oyoqlilar” tipi bo‘yicha amaliy mashg‘uloti va ekskursiyalar o‘tkazish, ularda o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalarini egallashingiz, bob bo‘yicha msni lar tuzishni o‘rganib, o‘z metodik tayyorgarligingizni orttirishingiz zurrur.

O‘fe	O‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish uchun o‘quv topshiriqlari	Topshiriqlarni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar	Izoh
1-o‘fe	<p>Maqsad: zoologiya darsligidan o‘rin olgan “bo‘g‘im oyoqlilar” tipini o‘qitish metodikasini o‘rganish.</p> <p>Zoologiya darsligi, o‘quv dasturi va tarqatma materiallarni o‘rganing va quyidagi savollarga javob toping:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. “zoologiya” darsligidagi “bo‘g‘im oyoqlilar” tipini ko‘rib chiqing. U qaysi mavzularni o‘z ichiga oladi? 2. O‘quv dasturini tahlil qiling. Mavzularni o‘rganish uchun ajratilgan soatlarni aniqlang. 3. Zoologiya darslarining mavzuli-rejasini ko‘rib chiqing, amaliy mashg‘uloti va ekskursiyalarni aniqlang. 	<p>Kichik guruh a‘zolari bilan hamkorlikda ishlang</p> <p>Talabalar bilan o‘tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting</p>	
2-o‘fe	<p>Maqsad: “bo‘g‘im oyoqlilar” tipini o‘rganish uchun mavzuli-reja tuzish.</p> <p>Berilgan tarqatma materialni o‘rganing va quyidagi savollarga javob toping:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Zoologiyadan tuzilgan mavzuli-reja o‘zida nimalarni mujassamlashtiradi? 2. Zoologiya mavzuli rejasida “bo‘g‘im oyoqlilar” tipini o‘rganish qaysi chorakka to‘g‘ri keladi? 3. Mazkur mavzuli-rejada mavzularning ketma-ketligi aniqlang. U darslikka mos keladimi? 	<p>Kichik guruh a‘zolari bilan hamkorlikda ishlang</p> <p>Talabalar bilan o‘tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting</p>	
3-o‘fe	<p>Maqsad: “hasharotlar tashqi tuzilishi” amaliy mashg‘ulotini o‘rganish.</p> <p>Darslikda berilgan amaliy mashg‘ulotining borishini o‘rganing va quyidagi savollarga javob toping:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Zoologiya darsligidagi “hasharotlar tashqi tuzilishi” amaliy mashg‘ulotini o‘tkazish uchun tavsiya etilgan jihozlar, o‘quvchilar 	<p>Kichik guruh a‘zolari bilan hamkorlikda ishlang</p> <p>Talabalar bilan o‘tkaziladigan savol-javobda</p>	

	<p>uchun berilgan o'quv topshiriqlarini ko'rib chiqing.</p> <p>2. Berilgan topshiriqlar etarlimi?</p> <p>3. Amaliy mashg'ulotining borishiga qanday o'zgartirishlar kiritish lozim?</p> <p>4. Mazkur chorak uchun belgilangan msnlarni ko'rib chiqing. Undagi topshiriqlarda dts talablari to'liq qamrab olinganmi?</p>	<p>faol ishtirok eting</p>	
4-o'fe	<p>Maqsad: "umurtqasiz hayvonlarning asosiy turlari va ularning hayoti bilan tanishish" ekskursiyani o'tkazish metodikasini o'rganish.</p> <p>1. Mazkur ekskursiyaning didaktik maqsadi va darslar tizimidagi o'rnini aniqlang.</p> <p>2. ekskursiyani o'tkazish joyini, kerakli jihozlarni aniqlang.</p> <p>3. Ekskursiyada o'quvchilarning bajaradigan o'quv topshiriklarini tuzing.</p> <p>4. Ekskursiyada kolleksiya tayyorlash uchun tavsiya tayyorlang.</p>	<p>Kichik guruh a'zolari bilan hamkorlikda ishlang</p> <p>Talabalar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting</p>	
5-o'fe	<p>Maqsad: modul dasturini yakunlash.</p> <p>1. Modul dasturining didaktik maqsadini o'qib chiqing. Siz unga qay darajada erishdingiz?</p> <p>2. O'z o'quv faoliyatingizni tahlil qiling va 5 balli tizimda baholang.</p> <p>3. O'z o'quv faoliyatingizdan qoniqish hosil qilgan bo'lsangiz, mazkur tipdan o'rin olgan birorta mavzu bo'yicha dars ishlanmasini loyihalang.</p> <p>4. Agar o'z o'quv faoliyatingizdan qoniqish hosil qilmagan bo'lsangiz, modul dasturi yordamida takroran ishlang.</p>	<p>Baho keyingi grafaga qo'yiladi</p>	
	<p>Kelgusi mashg'ulot uchun topshiriq:</p> <p>1. "sut emizuvchilar" sinfini o'qitish metodikasini ishlab chiqing.</p> <p>2. Mazkur bobdagi amaliy mashg'uloti va msnlarni tahlil qiling</p>		